

SANOAT KORXONALARI INNOVATSION RIVOJINING KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDAGI FAOLIYAT SOHALARINI TAKOMILLASHTIRISH

ALIYEV AZIM TOLIB O'G'LI

ALFRAGANUS UNIVERSITY katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqola korporativ boshqaruv tizimidagi funksional faoliyatning strategik va menejment sohalarida, korxona tizim elementlarining ichki izchilligini saqlashda va korporativ afzalliklarni saqlab turish zarurligini asoslaydi. Korporativ boshqaruv tizimidagi vazifaviy faoliyat kompaniyaning tizim elementlarining ichki izchilligi va korporativ afzalliklarni saqlab qolish, tegishli resurslarni yaratish va ularga muvofiq strategiyaning boshqa elementlarini muvofiqlashtirish, pirovardida resurslarning biznesdagi raqobat ustunliklari bilan bog'liqligi korporativ strategiyaga uning faoliyati samaradorligini ta'minlash imkonini beradi. O'tkazilgan tadqiqotlarda korporativ boshqaruv tizimini boshqaruv munosabatlarining o'zaro bog'liq subyektlari (menejerlar, direktorlar Kengashi va aksiyadorlar) ning ajralmas shakllanishi sifatida taqdim etish imkonini beradi, tashkiliy-huquqiy tuzilmaga birlashib, uning faoliyati resurslarni samarali taqsimlash va shakllantirish, aksiyadorlik jamiyatining tashkiliy-iqtisodiy natijalarini strategik boshqarish va korporativ raqobat afzalliklarini yaratish nuqtai nazaridan ichki va tashqi mexanizmlar va rag'batlantirish tizimi orqali aksiyadorlar tomonidan egalarining vakolatlarini amalga oshirish maqsadida huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy va boshqaruv munosabatlariga asoslanadi. Shunday qilib, korporativ boshqaruv tizimi (KBT) faoliyati, tadqiqot tomonidan ko'rsatilganidek, quyidagi sohalarda amalga oshirilishi lozim: strategik, resurs va ma'muriy. Korporativ boshqaruv alohida fan sifatida R.Triker tomonidan «Korporativ boshqaruv» nomli birinchi kitob 1984 yilda chop etilgan. Korporativ boshqaruv – ishlab chiqarishni rivojlantirish faoliyati, mavjud moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanishni kapital mablag'larning yangi texnika va texnologiyalarni ko'plab jalb etilishi bilan uyg'unlikda olib boriladi deb yuritilgan. Shu sababli iqtisodiy

adabiyotlarda mavjud pozitsiyalarni tanqidiy tushunish tadqiqot muallifiga korporativ boshqaruv tizimi (KBT)ning o'ziga xosligi korporativ boshqaruv tizimi faoliyatida maqsadli yo'naltirilganligi bilan belgilanadi. Korporativ boshqaruvning bu muhitida tizim elementlari o'rtasidagi ziddiyatlarning oldini olish, aksiyadorlik jamiyati tuzilmasini tashkil etuvchi ishtirokchilar majmuasining ichki izchilligini ta'minlashga bog'liq. Innovatsion guruhning o'zaro hamkorlik ko'rsatkichi hisoblangandan keyin innovatsion guruhning hamma korxonalari uchun o'zaro hamkorlikning eng yuqori va eng quyi miqdorlari aniqlanadi. Bunday miqdorga ega bo'lgan korxonalar innovatsion guruhdagi «tor joy»lar hisoblanadi. Sanoat korxonalarida innovatsion guruhlar tashkil etilsa, ularni samaradorligi oshirilsa, unda tashkil etilgan innovatsion guruhni muvaffaqiyati ortadi.

Kalit so'zlar: innovatsiya, korxonalar faoliyati samaradorligi, innovatsion faoliyat, innovatsion rivoj, boshqaruv tizimi, korporativ boshqaruv.

Abstract. The article substantiates the need to maintain the internal consistency of the elements of the enterprise system and maintain corporate advantages in the strategic and management areas of functional activity in the corporate management system. The task activity in the corporate management system is the internal consistency of the company's system elements and the maintenance of corporate advantages, the creation of appropriate resources and the coordination of other elements of the strategy according to them. In the conducted studies, it is possible to present the corporate management system as an integral formation of interrelated subjects of management relations (managers, board of directors and shareholders), combined with the organizational and legal structure, its activity is effective distribution and formation of resources, the organization of the joint-stock company. - based on legal, organizational, economic and management relations in order to implement the powers of the owners by the shareholders through internal and external mechanisms and incentive system in terms of strategic management of economic results and creation of corporate competitive advantages. Thus, the activities of the corporate management system (CMS), as shown by the research, should be carried out

in the following areas: strategic, resource and administrative. Corporate management as a separate discipline was published by R. Tricker in 1984, the first book entitled "Corporate management". It is assumed that corporate management is the activity of development of production, the rational use of existing material, financial and labor resources is carried out in harmony with the involvement of capital funds and new techniques and technologies. Therefore, a critical understanding of the existing positions in the economic literature suggests to the author of the research that the uniqueness of the corporate governance system (CMS) is determined by the purposeful orientation of the corporate governance system. In this environment of corporate governance, the prevention of conflicts between system elements depends on ensuring the internal consistency of the complex of participants that make up the structure of the joint-stock company. After calculating the index of cooperation of the innovative group, the highest and lowest amounts of cooperation are determined for all enterprises of the innovative group. Enterprises with this amount are considered "bottlenecks" in the innovative group. If innovation groups are established in industrial enterprises, if their efficiency is increased, the success of the innovation group will increase.

Key words: innovation, enterprise efficiency, innovative activity, innovative development, management system, corporate management.

Kirish. Respublikaning iqtisodiy o'sishi va sanoat rivojlanishida yirik integratsiyalashgan biznesning roli yetakchi ekanligi hozirgi kunda juda obyektiv holatga aylandi. Maqoladagi tadqiqot mavzusining dolzarbligi kimyo sanoati korxonalarida korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish; korxonalar rivojlanish strategiyasini tanlashda korporativ boshqaruv organlarining rolini oshirish bo'yicha vazifalar majmuini oqilona hal etish; korporativ boshqaruv tizimidagi vazifaviy faoliyat korxonaning tizim elementlarining ichki izchilligi va korporativ afzalliklarni saqlab qolish, strategik va ma'muriy sohalarda amalga oshirilishi zaruratini asoslash bo'yicha takliflar ishlab chiqish zarurati bilan belgilanadi.

O'zbekistonda keyingi yillarda innovatsiyalarga keng e'tibor qaratilib, innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ilm-fan sohasini qo'llab-quvvatlash borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta'birlari bilan aytganda: "Mamlakatimiz uchun ilm-fan sohasidagi ustuvor yo'nalishlarni aniq belgilab olishimiz kerak. Hech bir davlat ilm-fanning barcha sohalarini bir yo'la taraqqiy ettira olmaydi. Shuning uchun ham biz har yili ilm-fanning bir nechta ustuvor yo'nalishini rivojlantirish tarafdorimiz... Ilm-fan sohasida fundamental va innovatsion tadqiqotlar uchun maqsadli grant mablag'larini ajratish mexanizmini tubdan qayta ko'rib chiqish kerak"[1, 3-b.].

Bugungi kunda mamlakatda sanoatni rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan yana biri sanoat korxonalarida innovatsiyalarni samarali joriy etish hisoblanadi. «Innovatsiya» atamasi «yangilik kiritish» yoki «yangiliklar» tushunchasining sinonimidir. Innovatsiyalarni joriy etish, birinchidan, texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar bo'lsa, ikkinchidan, fan-texnika yutuqlari va ilg'or tajribaga asoslangan zamonaviy texnologiyalardir.

Mutaxassislarining fikriga ko'ra, ilmiy tadqiqot va innovatsiya loyihalarini amalga oshirishga sarflangan xarajat 5-7 yilda taxminan o'n barobar foyda bo'lib qaytadi. Keyingi yillarda dunyoning yetakchi mamlakatlarida yangi texnologiyalar uchun juda katta moliyaviy mablag' ajratilmoqda. Chunki ular pirovard natijada katta foyda olishlari va dunyo bozorlarida o'zining o'rnini mustahkamlashlarini amalda isbotlamoqdalar.

Adabiyotlar sharhi. Innovatsiyalarning mazmunini o'zgarishlar tashkil qiladi va innovatsion faoliyatning asosi o'zgarishlar funksiyasi hisoblanadi. Avstriyalik olim I. Shumpeter innovatsiyalarning beshta asosiy turini ajratib ko'rsatgan [4, -C.28-35]:

- yangi texnikadan, yangi texnologik jarayonlardan foydalanish;
- yangi xususiyatlarga ega bo'lgan mahsulotni joriy qilish;
- yangi xomashyoni qo'llash;
- ishlab chiqarishni tashkil etish va moddiy-texnik ta'minotda o'zgarishlar;

mahsulot sotishning yangi bozorini ochish.

Ixtirochilikning rivojlanishi, biror yo‘nalishdagi yirik ixtiro va kashfiyotlarning yaratilishi innovatsion faoliyatning muhim omillari hisoblanadi [9, -C. 135-142].

Innovatsiya yangi yoki takomillashgan mahsulotning (xizmat) yaratilishi, ishlab chiqarish jarayonining yo‘lga qo‘yilishi, biznesni yuritishda marketing yoki tashkiliy usullarning joriy qilinishi, ish o‘rinlarini tashkil etish yoki tashqi aloqalar o‘rnatilishini o‘zida mujassamlashtirgan faoliyatning yakuniy natijasi bo‘lib, u ilmiy tadqiqotlar asosida yaratilgan yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishdir [13, -C. 213].

«Innovatsiya» salohiyatli fan-texnika taraqqiyotining real hayotga joriy etilishi, yangi mahsulotlar va texnologiyalarda namoyon bo‘lish jarayonidir. Innovatsiya – yangicha tartib, yangicha uslub, kashfiyot.

Yangi turdagi xomashyo, mashinalar, uskunalar, energiya manbalari, texnologik jarayonlarning paydo bo‘lishi yangi tarmoqlar vujudga kelishini taqozo etadi. Har qanday taraqqiy etgan mamlakat uchun fan-texnika taraqqiyotining asosini fundamental ilmiy-amaliy tadqiqotlarni rivojlantirilishi tashkil etadi. Ko‘pgina istiqbolli yangi tarmoqlarning paydo bo‘lishi va taraqqiy etishiga fundamental fanlar va amaliy izlanishlarning yutuqlari sabab bo‘lgan [11, -C. 285-292].

Korporativ boshqaruv, avvalo, aksiyadorlik jamiyati faoliyati bilan bog‘liq muayyan manfaatlarni qondirish maqsadida korporativ shaxslar va boshqa manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi boshqaruv munosabatlari tizimi sifatida belgilanadi.

"Korporativ boshqaruv" tushunchasi 2004 yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan shakllantirilgan "Korporativ boshqaruv tamoyillari" orqali ochib beriladi. Korporativ boshqaruv - bu aksiyadorlik jamiyati rahbariyati, direktorlar Kengashi, aksiyadorlar va boshqa shaxslar o‘rtasidagi manfaatdor o‘zaro munosabatlar tizimi bo‘lib, ular ichida ularga erishishning maqsad va vositalari shakllanadi [12, -C. 173-182].

Umuman «korporativ boshqaruv» atamasining o‘zi tarixan o‘tgan asrning 70-yillari o‘rtalarida AQShda paydo bo‘lgan. Keyinchalik ushbu atama Yevropada keng

tarqalib, unda korporativ menejment, korporativ huquq va korporativ tuzilmalar (tashkilotlar)ni yaratish sohalarida tadqiqotlar olib borilgan [6, -S. 252-262]. Tadqiqotlar shuni krsatadiki, «korporativ boshqaruv» atamasi ilk marta R.Ills tomonidan «korporativ tuzumning tuzilishi va faoliyati» mohiyatini ochib berishda qo'llanilgan. «Korporativ boshqaruv» konsepsiyasi o'zi azaldan ma'lum bo'lgan va bu konsepsiya 20-asr boshlarida chop etilgan adabiyotlarda qo'llanilgan [3, -C. 315-324].

Korporativ boshqaruv alohida fan sifatida 1980-yillarda yuzaga kelgan. R.Triker tomonidan «Korporativ boshqaruv» nomli birinchi kitob 1984 yilda chop etilgan. 1993 yildan boshlab «Corporate Governance: An International Review» deb nomlangan nazariy jurnal chiqa boshlagan [5, -C. 241-243]. Unga muvofiq kompaniyalarni tashkil etish, boshqarish va samarali o'zaro faoliyat yuritish asosida yotgan huquqiy konsepsilar va tartibotlarning umumiy nomlanishi «korporativ boshqaruv» nomini olgan [2, -C. 198-210].

O'zbekistonlik tadqiqotchi-olimlar ham korporativ boshqaruvga o'zlarining ta'riflarini berishgan. Ular o'rtasida birinchilardan bo'lib T.Madiyorov korporativ boshqaruvga quyidagicha ta'rif bergan: «Korporativ boshqaruv – ishlab chiqarishni rivojlantirish faoliyati, mavjud moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanishni kapital mablag'larning yangi texnika va texnologiyalarni ko'plab jalb etilishi bilan uyg'unlikda olib boriladi» [10, 51-62-betlar].

Iqtisodchi olimlar Sh.Zaynutdinov va D.Raximova «Korporativ boshqaruv – manfaatdor shaxslarning daromad olish maqsadida birgalikdagi harakatlaridir», - degan ta'rifni keltirishgan [7, 113-121- betlar].

O'z tadqiqotlarida A.A.Zoxidov tomonidan korporativ boshqaruvning quyidagi ta'rifi taklif qinlingan: «Korporativ boshqaruv – bu aksiyadorlar manfaatlari ustuvorligini kompaniya samaradorligi bilan birgalikda ta'minlab beradigan boshqaruv tizimidir» [8, 65-71-betlar].

Metodologiya. Innovatsion jarayonlarni takomillashtirish uchun yagona innovatsion guruh sifatida birlashgan sanoat korxonalarining innovatsion guruhini (texnologik zanjirini) shakllantirish lozim. Innovatsion guruhni tuzish bo'yicha asosli

qaror qabul qilingandan keyin dastlabki bosqichlarda uning tarkibiga kiruvchi kontagentlar (ishtirokchilar) tanlab olindi.

Ishtirokchilarni ko'rik asosida tanlab olishda asosiy omil bo'lib, texnologik qiymat mezoni hisoblanadi (K_{tq}). U quyidagicha hisoblandi [4, -C. 97-102].:

$$K_{tq} = \frac{P}{Z \cdot DIG} \quad (1)$$

Bunda, P – innovatsion guruh doirasida mahsulot ishlab chiqarish natijasi (sotuvdan tushum), mln. so'm.

Z – shu mahsulotlarni ishlab chiqarish xarajatlari, mln. so'm;

DIG – innovatsion guruh doirasida mahsulot ishlab chiqarishning davomiyligi, kunlar.

Bu koefitsiyent innovatsion guruh doirasida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini xarakterlaydi. Innovatsion guruh tarkibidagi korxonaning faoliyati samaradorligini baholashda fond samaradorligi aniqlanadi. U mahsulot sotishdan tushumni doimiy aktivlarning yillik o'rtacha qiymatiga nisbati bo'yicha aniqlanadi.

Har bir korxonani korporativ samaradorligi quyidagicha hisoblandi:

1. Har bir korxona xarajatlarining (DZ_i) butun innovatsion guruh xarajatlaridagi hissasi aniqlandi. U quyidagi formula orqali topildi:

$$DZ_{ki} = \frac{Z_{ki}}{Z_{иг}} \quad (2)$$

Bunda, Z_{ki} – i – korxonaning xarajatlari;

$Z_{иг}$ – innovatsion guruh xarajatlari.

2. Har bir korxonaning butun innovatsion guruh foydasidagi (DP_{ki}) hissasi:

$$DP_{ki} = \frac{P_{ki}}{P_{иг}} \quad (3)$$

Bunda, P_{ki} – i – korxonaning sof foydasi;

$P_{иг}$ – innovatsion guruhning sof foydasi.

3. Korporativ samaradorlik koefitsiyenti (K_{ki}) har bir korxona uchun alohida quyidagicha hisoblandi:

$$K_{ki} = \frac{DP_{ki}}{DZ_{ki}} \quad (4)$$

4. Korporativ samaradorlik koeffitsiyentidan kelib chiqqan holda korxonalarni tabaqalash amalga oshiriladi.

Innovatsion guruh faoliyatini nazorat qilish quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

kontragentlarning (ishtirokchilar) o'zaro hamkorligini nazorat qilish;

o'zaro hamkorlikning tahlili;

innovatsion guruhdagi «tor joy»larni aniqlash.

Kontragentlarning o'zaro hamkorligini nazorat qilishda «Innovatsion guruhga kiritilgan hamma korxonalarning yagona birlik sifatidagi faoliyati har bir korxonaning alohida faoliyati natijasiga nisbatan samaralimi va bu bo'lsa, qanchalik?» degan savolga javob berish lozim. Buning uchun o'zaro hamkorlikning samaradorligi ko'rsatkichi hisoblandi. U innovatsion guruh samaradorligining innovatsion guruh tarkibidagi korxonalarning o'rtacha samaradorligiga bo'lgan nisbati bilan aniqlandi:

$$O'X = \frac{E_z}{E_{o'rt}} \quad (5)$$

Bunda, E_z – innovatsion guruhning integral samaradorligi,

$E_{o'rt}$ – innovatsion guruh tarkibidagi korxonalarning o'rtacha samaradorligi.

Innovatsion guruh tarkibidagi korxonalarning o'rtacha samaradorligi quyidagicha aniqlandi:

$$E_{o'rt} = \left(\frac{E_1}{2} + \sum_{i=2}^{n-1} E_i + \frac{E_n}{2} \right) * \frac{1}{n-1}; \quad (6)$$

Bunda, E_1 – innovatsion guruhdagi birinchi korxonaning samaradorligi;

E_i – i – korxonaning samaradorligi;

E_n – n – korxonaning samaradorligi;

n – innovatsion guruhdagi korxonalar soni.

Innovatsion guruhning umumiy samaradorligi quyidagicha aniqlandi:

$$E_{ig} = \frac{P_{ig}}{VA_{ig} + Z_{boshq}} \quad (7)$$

Bunda, P_{ig} – innovatsion guruhning foydasi.

$$P_{ig} = (CHP_i) + CHP_{boshq} \quad (8)$$

Bunda, CHP_i – innovatsion guruhdagi i – korxonaning sof foydasi;

CHP_{boshq} – innovatsion guruhni boshqaruvchi uyushmaning bo'sh mablag'larni qo'yishidan olinadigan sof foyda;

VA_{ig} – innovatsion guruhning jami mablag'lari;

Z_{boshq} – boshqarish xarajatlari (innovatsion guruhning ish faoliyatini ta'minlash xarajatlari).

Tahliliy natijalar.

Korporativ boshqaruv tizimidagi vazifaviy faoliyat kompaniyaning tizim elementlarining ichki izchilligi va korporativ afzalliklarni saqlab qolish, tegishli resurslarni yaratish va ularga muvofiq strategiyaning boshqa elementlarini muvofiqlashtirishda pirovard maqsadni aniklash va erishishdagi muvaffaqiyatini ta'minlashi kerak. Shunday qilib, resurslarning biznesning raqobat ustunliklari bilan bog'liqligi korporativ strategiyaga uning faoliyati samaradorligini ta'minlash imkonini beradi.

Korporativ boshqaruv tizimidagi vazifaviy faoliyat kompaniyaning tizim elementlarining ichki izchilligi va korporativ afzalliklarni saqlab qolish, tegishli resurslarni yaratish va ularga muvofiq strategiyaning boshqa elementlarini muvofiqlashtirishda pirovard maqsadni aniklash va erishishdagi muvaffaqiyatini ta'minlashi kerak. Shunday qilib, resurslarning biznesning raqobat ustunliklari bilan bog'liqligi korporativ strategiyaga uning faoliyati samaradorligini ta'minlash imkonini beradi.

O'tkazilgan tadqiqotlar korporativ boshqaruv tizimini boshqaruv munosabatlarining o'zaro bog'liq subyektlari (menejerlar, direktorlar Kengashi va aksiyadorlar) ning ajralmas shakllanishi sifatida taqdim etish imkonini beradi, tashkiliy-huquqiy tuzilmaga birlashib, uning faoliyati resurslarni samarali taqsimlash va shakllantirish, aksiyadorlik jamiyatining tashkiliy-iqtisodiy natijalarini strategik boshqarish va korporativ raqobat afzalliklarini yaratish nuqtai nazaridan ichki va tashqi mexanizmlar va rag'batlantirish tizimi orqali aksiyadorlar tomonidan egalarining

vakolatlarini amalga oshirish maqsadida huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy va boshqaruv munosabatlariga asoslanadi. Shunday qilib, korporativ boshqaruv tizimi (KBT) faoliyati, tadqiqot tomonidan ko'rsatilganidek, quyidagi sohalarda amalga oshirilishi lozim: strategik, resurs va ma'muriy.

Bu sohalar YAIM faoliyati samaradorligini va aksiyadorlik jamiyati bozorida raqobat ustunliklarini shakllantirish samaradorligini belgilaydi.


Shuning uchun korporativ boshqaruv tizimi faoliyatning uchta asosiy vazifaviy yo'nalishlarini ta'minlashga qaratilishi kerak:

strategik aspekt nuqtai-nazaridan - aksiyadorlik jamiyati istiqbollarini ko'rish;

resurs aspekti nuqtai-nazaridan - aksiyadorlik jamiyatining biznes portfelidagi resurslarni samarali taqsimlash va ulardan foydalanish;

ma'muriy jihatdan - umuman kompaniyaning ishlashini ta'minlaydigan biznesning umumiy boshqaruvi.

Korporativ boshqaruv tizimining faoliyat yo'nalishlarining muallif ishlanmasi 1-rasmda ko'rsatilgan.



1-рasm. Korporativ boshqaruv tizimining faoliyat yo‘nalishlari¹

O‘zaro hamkorlik tahlilida hamkorlik ko‘rsatkichlari o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar tahlil qilinib, ikkita savolga javob berish lozim:

1. O‘zaro hamkorlik ko‘rsatkichi qaysi omillarning ta’sirida o‘zgaradi?
2. Qaysi omillarning o‘zgarishi innovatsion guruh samaradorligiga ko‘proq ta’sir ko‘rsatadi?

O‘zaro hamkorlik ko‘rsatkichiga ta’sir etuvchi omillarga sof foyda, jami mablag‘lar samardorligi va o‘rtacha samaradorlik kabilar kiradi. Har bir omilning rejadagi ko‘rsatkichga ta’sirini aniqlash uchun omillarning rejali miqdori va haqiqiy miqdorini almashtirish usuli qo‘llaniladi.

Innovatsion guruhdagi «tor joy»lar innovatsion guruh faoliyati samaradorligini pasaytiradigan korxonalar hisoblanadi. Innovatsion guruhdagi «tor joy»larni aniqlash uchun zanjirning har bir korxonasi uchun o‘zaro hamkorlik ko‘rsatkichi aniqlanadi:

$$O'X_i = \frac{E_i}{E_{o'rt}} \quad (9)$$

Bunda, E_i –korxona bo‘yicha tuzatish kiritilgan zanjir samaradorligi.

Xulosa. Shunday qilib, bu masala bo‘yicha iqtisodiy adabiyotlarda mavjud pozitsiyalarni tanqidiy tushunish tadqiqot muallifiga korporativ boshqaruv tizimi (KBT)ning o‘ziga xosligi korporativ boshqaruv tizimi faoliyatida maqsadli yo‘naltirilganligi bilan belgilanadi, degan xulosaga kelish imkonini berdi. Korporativ boshqaruvning bu muhitida tizim elementlari o‘rtasidagi ziddiyatlarning oldini olish, aksiyadorlik jamiyati tuzilmasini tashkil etuvchi ishtirokchilar majmuasining ichki izchilligini ta’minlashdan iborat.

Innovatsion guruhning o‘zaro hamkorlik ko‘rsatkichi hisoblangandan keyin innovatsion guruhning hamma korxonalari uchun o‘zaro hamkorlikning eng yuqori va eng quyi miqdorlari aniqlanadi. Bunday miqdorga ega bo‘lgan korxonalar innovatsion guruhdagi «tor joy»lar hisoblanadi.

¹ Muallif ishlanmasi

Yuqoridagi yoʻnalishlarda mamlakatimizda tarmoqlar yoki hududlar boʻyicha sanoat korxonalarining innovatsion guruhlarini tashkil etilsa, ularning samaradorligi yuqorida keltirilgan usullar orqali aniqlanib ,innovatsion guruh faoliyatiga toʻsqinlik qiluvchi guruhdagi «tor joy»lar hisoblanadigan korxonalarning samaradorligi oshirilsa, tashkil etilgan innovatsion guruhlar muvaffaqiyatli faoliyat olib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Халқ сўзи. 2020 йил 25 январь.
2. Corporate Governance – The New Focus of Interest Editorial by Tricker R.I. // Corporate Governance: An International Review . – 1993. – No. 1. – P. 1-4.
3. Eells R.S.F. the Meaning of Modern Business; An Introduction to the Philosophy of Large Corporate Enterprise. – New York: Columbia University Press, 1960. – 427 p.
4. Shumpeter Y. Business Cycles. vol. 1,2.- New York, 1989.
5. Tricker R.I. Corporate Governance : Practices, Procedures and Powers in British companies and Their boards of Directors. – Aldershot, UK: Gower Publishing & Oxford; Nuffield College, 1984. - 319 p.
6. Veasey E.N. The Emergence of Corporate Governance as a New Legal Discipline // The Business Lawyer. – August 1993. – Vol.48, Issue 4. – P.1267-1271.
7. Зайнутдинов Ш.Н., Раҳимова Д.Н. Корпоратив бошқарув асослари. – Т.: Академия, 2007. – 48 б.
8. Зоҳидов А.А. Повышение эффективности управления акционерными компаниями в условиях переходной экономики: Дис. ... канд. экон. наук. – Т.: ТГТУ, 2004. – 154 с.
9. Инновационный менеджмент. Учебник Под.ред.С.Д.Ильенковой.М.,1997
10. Мадияров Т.К. Дехқончилик-саноат мажмуида ижтимоий-иқтисодий ислохотлар тизими ва корпоратив бошқарувни жорий этиш хусусиятлари: Иқт.ф. док. ... дисс. иши. – Т.: 1993. -260 б.
11. Морозов Ю.П. Инновационный менеджмент. М.:ЮНИТИ, 2000 г.

12. Принципы корпоративного управления Организации экономического сотрудничества и развития [Электронный ресурс]:

http://pmguinfo.dp.ua/images/documents/korp_otnosheniya/principy_oesr.pdf

13. Фатхутдинов Р.А. Инновационный менеджмент. Учебник для вузов –М.: Интел Синтез, 1998 г.